


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI


Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

2/2024



E-ISSN 2181-1466

9 772181146004

ISSN 2181-6875

9 772181687004

MUNDARIJA * СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS**

TILSHUNOSLIK * LINGUISTICS *** ЯЗЫКОЗНАНИЕ**

Norova M.F.	Dialectisms in the language of literary works	3
Eshonqulova M.Z.	Ontolingvistikaning tarixi va uning rivojlanish bosqichlari	8
Hikmatova N.A.	Artificial words, combinations and phrases formed in Uzbek language with the word «market»	12
Hojieva M.G.	The transformative power of literature in language teaching: cognitive, linguistic, and effective dimensions	16
Jumaev M.A.	Modal verbs in modern English	21
Qutliyeva M.G‘.	Ingliz tilida iqtisodiy lug‘at tarkibi va tizimlari	25
Xalikova M.X.	Ayrim raqam va sonlarda lug‘aviy-semantic munosabatlarning milliy-mental verballahushi	30
Жўраева Л.Ж.	Навоий асарларидаги кийим номларининг лингвокультурологик тадқики	36
Сирожева Н.С.	Роль, использование и типы лексических трансформаций в процессе перевода	43
Abdullaeva G.G.	The effects of self-esteem, inhibition and anxiety in second language acquisition	48
Faleeva A.V.	Lexico-semantic and morphemic-morphological features of English colloquialisms in lexicographical sources	55
Cho‘liyev R.A.	Abdulla Qodiriyning “Nima qayoqqa ketadir” va “Ko‘mak” uyushmasiga ionalar” hajviyalarining statistik tahlili	59
Rasulov Z.I., Murtazoyev O.N.	Badiiy matn tahlilida intertekstual birliklarning ahamiyati	64
Ubaydullayeva M.O‘.	Frazeologik birliklarning semantik-grammatik va funksional xususiyatlari	68
Фалеева Е.В.	Английские неологизмы различных поп-культур	76
Шарипова Д.К.	О сравнении традиционных и современных (электронных) словарей	81
Mamarasulova G.A., Xojimurodova Sh.E.	Distinctive characteristics and complexity of socio-political texts	88
Cho‘liyev R.A.	Badiiy asar tilining o‘rganilishi va uning ahamiyati	93
Norova M.F.	Stylistic functions of jargonisms in artistic imagery	97
Shirinova M.Sh.	Kino tili va leksik me’yor munosabati	101

ADABIYOTSHUNOSLIK * LITERARY CRITICISM ***
ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ**

Ishankulova D.A.	Umar Xayyom ruboilarining shubhali nusxasi	105
Narzullayeva F.O., Asadov A.B.	Maqol va aforizmlarning ahamiyati	110

KINO TILI VA LEKSIK ME'YOR MUNOSABATI

*Shirinova Mexrigiyo Shokirovna,
Buxoro davlat universiteti O'zbek tilshunosligi
va jurnalistika kafedrasи o'qituvchisi, PhD
m.s.shirinova@buxdu.uz, shmexrigiyo@mail.ru
Orcid: 0000-0003-4855-3547*

Annotatsiya. Maqolada kino tilining leksik ortologik xususiyatlari, leksik me'yorga munosabati nazariy fikrlar hamda kinofilmlardan olingan misollar asosida dalillangan. Har qanday adabiy til borki, til me'yorlarini ishlab chiqishi, tartibsizliklarni vaqtida tuzatishi hamda til me'yorlarini sinxronik nuqtayi nazardan yangilab turishi shart. Kino tili adabiy til me'yorlarining barqarorlashishida hamda keng ommalashishida juda muhim rol o'ynaydi. Leksik me'yorlarning kinofilmlar tilida talab darajasida ishlatilish/ishlatilmasligi audiomahsulotning umrini belgilaydi. Shu ma'noda me'yor tarzida shakllangan, bizga yozish va so'zlashda andoza bo'la oladigan leksik birliliklarning kino tilida qo'llanilishi adabiy til rivojlanishiga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: kino, kino tili, leksik me'yor, ssenariy tili, adabiy til me'yorlari.

ЯЗЫК КИНО И ОТНОШЕНИЯ ЛЕКСИЧЕСКОЙ НОРМЫ

Аннотация. В статье доказываются лексико-ортологические особенности языка кино, его отношение к лексической норме на основе теоретических соображений, а также примеров из кинофильмов. Любой литературный язык обязан разрабатывать языковые нормы, своевременно исправлять нарушения и обновлять языковые нормы с синхронной точки зрения. Язык кино играет очень важную роль в стабилизации норм литературного языка, а также в его широкой популярности. Использование/неиспользование лексических норм на уровне требований в языке кинофильмов определяет срок службы аудиопродукции. В этом смысле применение в языке кино лексических единиц, сформированных в виде норм, которые могут служить нам образцом в письменной и устной речи, служит развитию литературного языка.

Ключевые слова: кино, язык кино, лексическая норма, язык сценария, нормы литературного языка.

FILM LANGUAGE AND LEXICAL NORM ATTITUDE

Abstract. The article provides evidence on the basis of lexical orthological features of the language of cinema, theoretical views on the attitude to the lexical norm, as well as examples from motion pictures. There is any literary language that is obliged to develop language norms, correct irregularities in time, and update language norms from a synchronous point of view. The language of cinema plays a very important role in the stabilization of literary language norms, as well as in the widespread popularization. Whether or not lexical norms are used/used on demand in the language of Motion Pictures determines the life span of an audiomahsulot. In this sense, the use of lexical units in the language of cinema, formed in the norm, which can become a template in writing and speaking to us, serves the development of a literary language.

Keywords: Cinema, film language, lexical norm, scriptural language, literary language norms.

Kirish. Filmning ko'ngilocharligi, tomoshabinlar qalbidan joy egallashi unda aks etgan g'oya hamda ssenariyga chambarchas bog'liq. Ssenariyning mazmundorligi esa qo'llanilgan so'zlarning rang-barangligi bilan belgilanadi. Ayni shu rang-baranglikni hamda adabiy til bilan umumxalq tilining mushtarakligini ko'rsata olish ssenariynavis zimmasidagi asosiy vazifalardan biridir. Nutq samaradorligi aniqlik, soflik, to'g'rilik, ma'nolilik, tushunarilik kabi tamoyillariga asoslanadi. Ssenari ushbu tamoyillarga binoan tuzilsa, film tomoshabin qalbida muhrlanadi, ko'zlangan maqsadni amalga oshirishda to'g'ri yo'l tanlanganidan dalolat beradi.

Jamiyatda yuz berayotgan o'zgarish, yangiliklar, eng avvalo, uning leksikasida bo'y ko'rsatadi. Shu sababli til sathlari orasida eng tez o'zgaruvchan sath leksika deya ta'kidlanadi. Istiqlol sharofati tufayli badiiy filmlar leksikasi tubdan o'zgardi: zamonaviy imidjlar, zamonaviy qahramonlarga mos zamонавиy

LINGUISTICS

so‘zlar aks eta boshladi.“Nutqning boyligi uning xilma-xilligi [1]”ga bog‘liq ekanligini mustaqillik davri o‘zbek kinofilmlari tili misolida yaqqol tasavvur qilish mumkin. Xilma-xil bo‘lmagan nutq tomoshabinni zeriktiradi. Ba’zan bir filmdan ikkinchi filmga ko‘chib yuruvchi so‘zlar, takrorlanuvchi jumlalarning ko‘p qo‘llanilishi natijasida filmni tomosha qila turib, aktyor aytishi kerak bo‘lgan so‘zni u aytmasdan ilgari aytib yuborasiz. Bu ssenariy saviyasining pastligi, ssenariynavis leksikasining qashshoqligidan dalolat beradi.

Ta’kidlash joizki, so‘z semantikasi, kino tilidagi og‘zaki nutqning sermazmunligi ko‘proq kommunikativ vositalarga bog‘liq bo‘lib, u ssenariyda o‘z ifodasini topadi. Shu sababli kino tilining asosini tashkil etuvchi leksik vositalarning tuzilishi hamda semantikasining tadqiqi izoh talab etadi. Bu borada kino leksikasining leksik me’yorga munosabatini tahlil etish ahamiyatlidir. Tahlilda qo‘llanilayotgan so‘zning ma’nosini, saviyasi, o‘rni, adabiy me’yorga muvofiq/nomuvofiqligi inobatga olinishi muhim sanaladi.

Asosiy qism. Leksik me’yorni umume’tirof etilgan ortologik me’yorning bir turi sifatida baholamay, shubha bilan qaraydiganlar ham mavjud. Chunonchi, B.N.Golovin “me’yor – bu nutqning avtomatik ravishda qat’iy harakat qilib, nutqning sof strukturaviy tomonini tartibga soluvchi, lingvistik belgining funksional paradigmatic va sintagmatik variantlaridan birini tarixiy ravishda tanlangan tanlovidir. Bularning barchasi nutqda so‘zlardan foydalanishga taalluqli emas”ligini ta’kidlab, leksik darajadagi tanlov “odatda norma bilan emas, balki maqsadga muvofiqligi – og‘zaki muloqot ehtiyojlarini qondiradigan juda yumshoq va shu bilan birga talabchanlik bilan ishlaydigan prinsip” [1,49] deya fikr bildiradi.

N.A.Nikolina esa tilning leksik darajasi me’yoriy jihatdan ta’milangan deb hisoblaydi hamda leksik me’yor tushunchasini quyidagicha belgilaydi: “Leksik me’yorlar yoki so‘zdan foydalanish me’yorlari quyidagilar: 1) ma’nosini bir-biriga yaqin so‘zlardan to‘g‘risini tanlash; 2) tilda mavjud ma’nolarda ishlatish; 3) umumiy tilda qabul qilingan kombinatsiyalarini muayyan kommunikativ vaziyatda ishlatishning dolzarbligi” [2].

S.I.Vinogradovning fikriga ko‘ra, leksik norma ikki vazifani bajaradigan ortologik shakllanishdir. Birinchidan, u adabiy tilning leksikasini sheva, jargon, oddiy so‘zlashuv, eskirgan va noto‘g‘ri yangi so‘zlardan ajratib turadi, ularni faqat muayyan turdagini matnlarda (oddiy so‘zlashuv, badiiy, qisman publitsistik) foydalanishga imkon beradi va har doim maxsus kommunikativ-uslubiy vazifani bajaradi. Tadqiqotchingin fikricha, leksik me’yor namoyon bo‘lishining ikki bosqichi – “lug‘at tarkibi bosqichi” va “leksika etaloni bosqichi” bir-biriga ta’sir qiladi [3].

Olima Y.M.Xakimova leksik me’yorlilik deganda (1) polisemiya, omonimiya, sinonimiya, paranomika hodisalarini hisobga olgan holda leksik ma’nolar tizimini bilish; (2) lug‘at tarkibi qoidalariiga rioya qilishni tushunadi. Shuningdek, “muayyan kommunikativ vaziyatda mahalliy tillardan, argolardan, dialektizmlardan foydalanishning maqsadga muvofiqligi bir qator holatlarda leksik jihatdan emas, balki uslubiy va kommunikativ me’yorlar bilan belgilanishi” [4] ni ta’kidlaydi.

O.S.Axmanova leksik me’yorni “bu muayyan bir tilda so‘z qo‘llash me’yordir” [5] deya ta’riflaydi.

Bizningcha, leksik me’yorlarning boshqa til me’yorlariga qaraganda eng tez o‘zgaruvchanligini hisobga olib, til me’yorlari bilan bir qatorda muloqotning maqsadini ham ko‘zda tutish zarur. Bunga film tili yaqqol misol bo‘la oladi, chunki aktyor turli xarakterdagi kishilar obrazini o‘ziga mos leksika bilan ekranga olib chiqadi. Natijada muloqot vaziyati, maqsadi so‘zni tanlaydi, me’yoriy/nome’yoriy ekanligini belgilaydi.

O‘zbek kinofilmlarida “*ну*”, “*мак*”, “*мак что*”, “*зато*”, “*зачем*”, “*важное*”, “*карочи*”, “*братан*” kabi o‘zlashmagan so‘zlar (yoki varvarizmlar); “*galvars*”, “*jinni*”, “*axmoq*”, “*ovsar*”, “*so‘tak*”, “*itvachcha*” kabi so‘kinch so‘zlar uchraydi. Birgina “Salom, Natasha” filmida deyarli barcha qahramonlar nutqida o‘zbek tilida o‘zlashmagan ruscha so‘zlar ishlatiladi. Filmda Natasha va uning oila a’zolari hamda Artur rus millatiga mansub obrazlar sifatida gavdalananadi. Shu sababli ularning nutqida rus adabiy tilining so‘zlashuv shakli uchrashi tabiiy hol, ammo boshqa personajlar nutqini to‘laligicha oqlab bo‘lmaydi. Masalan:

Kuyov:

- *Потому что то‘йинни бузмоқчи икан* [00:01:07].
- *Ну что, зато биза бир-биримизни севамиз. Тушундиган?* [00:01:13].
- *Давно аформит бо‘ганман* [00:01:26].
- *Давай-давай, ... наехили* [00:01:45].

Umid:

- *О‘зи қакрас босим qichib turuvdi, qashib qo‘ydi босимни* [00:03:26].

Umidning otasi:

- *О‘зи нуланга қиынлиб turuvdim* [00:07:22].

Bu kabi misollar filmning bir necha kadrlarida kuzatiladi. O‘zlashmagan so‘zlarining so‘zlashuv nutqida faol ishlatilishi hamda buni ekran orqali ommaga yetkazish aynan shu so‘zlarni targ‘ib etish bilan

LINGUISTICS

teng. Zero, leksik me'yorning to'g'ri tanlanishi nutqning to'g'riliqi, aniqligi, sofligi bilan bevosita bog'liq. Shu bilan birga, yuqoridagi film nomida ham grafik, ham orfografik, ham punktuatsion me'yorning buzilishi kuzatiladi: "salom NATASHA" – titrda film nomi shunday yoziladi. Aslida lingvistik nuqtayi nazardan "Salom, Natasha" tarzida yozilishi to'g'ri hisoblanadi.

Yana bir ayni shu filmdan olingan diqqat qaratamiz: "Umid: Qandoq *nokas* farzanman. Shundoq qizga moliyaviy zarar yetkazdim ("Salom Natasha" [00:02:57]). ... Yana qandoq nokas fazanmana [00:03:45]". Parchada nokas so'zi noto'g'ri ishlatalgan. Ushbu so'zning lug'atda "vijdoni, insofi yo'q yaramas, qabih, pastkash; birovga hech narsasini ravo ko'rmaydigan, baxil, xasis, qurumsoq" [7] ma'nolari; sinonimi sifatida esa "xasis, baxil, pishiq, qattiq, qurumsoq, ziqna, nokasta, qizg'anchiq, mumsik va h.k." [8] kabi so'zlar keltirilib, "o'zga uchun bo'ladigan sarf-xarajatga pishiq" [8] ma'nosini bildirishi ta'kidlangan. Lug'atdagi ma'nolar filmdagi vaziyatda ushbu so'zning qo'llanilishini talab etmaydi. Kinokartina qahramoni Umid Natashaning ko'zoynagi va qo'l telefonini atayin sindirgani uchun o'zini *nokas* deydi. Holbuki, ushbu vaziyatda xasislik belgilari kuzatilmaydi; yaramas, qabih ma'nosiga ham to'la mos kelmaydi, chunki film qahramonidagi xatti-harakat qabihlik darajasidagi ish emas. Aslida nokas so'zining o'rniga *bezori* so'zini tanlagan ma'qul edi. Bundan tashqari *farzand* so'zining o'rniga *bola yoki odam* so'zları ishlatilsa, maqsadga muvofiq bo'lardi

Yurtimizda mustaqillik sharofati bilan ko'pgina sohalarda tub o'zgarishlar bo'y ko'rsatdi. Ushbu yangilanishlarning voqelanishi bevosita tilda ham namoyon bo'ldi. Jumladan, fan-texnikaning rivojlanishi, axborot texnologiyalarining yuqori bosqichga ko'tarilishi natijasida tilimizda o'ziga xos neologizmlar faol ishlatala boshlandi. Ularning orasida kino nomlari darajasiga ko'tarilganlari ham mavjud. Chunonchi, "Odnoklassniki.ru", "Sumalak kasting yoki uchmagan varrak", "Salom gruppadagilar", "Janob Hot-dogchi", "Amiran", "Account", "Snayper" kabi filmonimlar. Bugungi kunda so'zlashuvda gruppera, hot-dog, akkaunt birliklari nisbatan ko'proq foydalaniadi. *Gruppera* so'zi lug'atda guruh, to'da birliklarining sinonimi sifatida keltirilgan. Kino nomidagi gruppera so'zi esa telegram ijtimoiy tarmog'ida tashkil etilgan onlays muloqot qiluvchi guruh ma'nosida qo'llangan. Bir qarashda ushbu film nomida zamonaviylik bordek tuyuladi, aslida esa kun mavzusi darajasida olib chiqiladigan nom emas. Bundan tashqari punktatsion me'yorga ham riosa qilinmagan. *Salom* so'zidan keyin vergul ishlatalishi kerak edi, chunki *gruppadagilar* so'zi undalma vazifasida kelgan.

.Ko'pgina kinojodkorlar yaxshi filmning yaratilishi yaxshi ssenariya asoslanishini ta'kidlashadi. Ammo shu o'rinda yaxshi ssenariy faqat ssenariynavisga bog'liqmi, degan haqli savol tug'iladi. Albatta, yo'q. Kino katta bir ijodiy guruhning mehnati evaziga yuzaga keladi. Kino tilining mazmundorligi rejissorga ham, muallifga ham birdek daxldor. Buni Erkin A'zamning "Shovqin" romanidagi o'xshatishdan ham anglash mumkin. Asar qahramoni ssenariy yozuvchi Farhod Mirzayevich nutqida "ssenariynavis" so'zi o'mnda "kinoshorlik" jumlesi qo'llanadi. Nega endi yozuvchi bu so'zni kinossenariychiga nisbatan ishlatdi? Chunki muallif kinossenariyni yozib, rejissor qo'liga topshirgandan so'ng aksariyat hollarda kinoning suratga olinish jarayonida yoxud ssenariya o'zgartirish kiritish vaqtida ishtirot etolmaydi. Eng qiziq tomoni shundaki, kinoni ekranda ko'rgan ssenariynavis o'z-o'ziga shunday deydi: "Nahotki shu ssenariyni men yozgan bo'lsam?" Mana uning "shorlik" tomoni. Romanda esa quyidagicha izohni o'qiymiz: "*O'zimni esa dangaliga "kinoshorlik" deb bilaman. SHorlik bo'lmash – ssenariy yozarmidim, avvalambor shunga o'qirmidim? Ssenariychini men birovga qiz bergen sho'ring qurg'ur ota-onaga o'xshataman. Ne-ne orzu-umidlar bilan tug'ib voyaga yetkazasiz. Keyin bitta bo'yni yo'g'oni keladiyu ot va'da qilib, tuya va'da qilib olib ketadi. Olib ketgach, eltib bilgan ko'yiga soladi. Qani, endi aralashib ko'ring-chi!*" [6] Darhaqiqat, filmlarning yaratilishidagi ushbu holat kino tiliga ta'sir etmay qolmaydi.

Kino tili adabiy tildan ko'ra demokratikroq, ya'ni xalq tiliga yaqinroq bo'lishi kerak. Bu degani adabiy til me'yorlaridan butunlay voz kechish yoki ularni buzish mumkinligini anglatmaydi. Fan-texnikaning yuqori bosqichlarga ko'tarilishi kino tilini murakkablashtirdi, ammo uni yuzaga keltirishda bir qancha qulayliklarni yaratdi. Ma'lumki, kino (kino tili)ni yuzaga keltirishda faqat ssenariynavis emas, balki rejissor, prodyusser, aktyor, montaj ustasi, ovoz rejissori, grafika ustasi, operator, kompozitor, ovoz berish ustalari va boshqa ijodkorlarning xizmatlari alohida ahamiyatga ega. Chunonchi, aktyor nutqidagi biror jumla qay tarzda talaffuz etilishidan qat'i nazar montaj jarayonida tovush tezligi/tembri o'zgartirilishi yoki dublyaj jarayonida boshqa aktyor tomonidan ovoz berilishi yoxud boshqa so'z talaffuz etilishi mumkin. Aynan shu o'rinnarda texnikaning roli yaqqol ko'rindi.

San'at, xususan, kino shunday qudratli kuchki, millat, xalq tanlamaydi. Son-sanoqsiz insonlarni bir joyga yig'a oladi, ularni birlashtiradi, o'ziga maftun etadi hamda ortidan ergashtira oladi. Ayniqsa, vatanparvarlik va fidokorlik hissini kuchaytirish, ozodlik va hurlik uchun kurashish kabi ijtimoiy mavzularda suratga olingan filmlar har doim qadri baland, o'ta muhim mavzulardir. O'zbekistonda ham bu mavzu

yuzasindan ko‘pgina kinofilmlar suratga olingan va suratga olish davom etmoqda. Masalan, o‘zbek kino tarixida durdonalar sifatida tan olingan filmlar qatoriga Sh.Abbosov rejissorligida suratga olingan “Sen yetim emassan”, M.Abzalov rejissorligida suratga olingan “Suyunchi”, R.Botirov tomonidan ishlangan “41-yil olmalar” kabi nodir asarlar kiradi. Bularning tili shu qadar tabiiy va jonli ifodalanganki, biror bir qo‘pol leksik me’yor buzilishi kuzatilmaydi.

Mustaqillikdan so‘ng, o‘tgan besh yil kesimida ekranga olib chiqilgan ayrim film nomlarini keltirib o’tamiz: Akbar Bekturdiyevning “Tinchlik ortida”, “O‘zbek qizi”, Dilmurod Masaiovning “Ayl qismati”, Jahongir Ahmedovning “Ilhaq”, Akrom Shonazarovning “101-reys”, Rashid Malikovning “Tutqunlik”, Rustam Sa’diyevning “Baron-2: Sog’inch”, Hasan Alijonovichning “Hayot afsunlari”, Abduvohid G’aniyevning “Elparvar”, Hilol Nasimovning “Vatan ostonasi”, Zulfiqor Musoqovning “Berlin-Oqqo‘rg’on”, “Hayrat” kabi badiiy filmlari, Ali Hamroyevning “Xalq jasorati”, Komil Sharafiyevning “Matonat” kabi hujjathi filmlari. Sanab o’tilgan filmlarning mavzusi bir-biriga juda yaqin, ya’ni vatanparvarlik, tinchlik, farovon va obod turmush tarannumiga bag’ishlangan. Ularning qanchalik tomoshabin qalbidan o‘rin olayotganligi, son va sifatining talab darajasida egaligi yoki ega emasligi, yoshlarni qay darajada ruhlantirayotganligi faqatgina aktyorlarning mahoratiga, zamonaviy texnikalarga bog’liq emas. Albatta, ssenariy saviyasi, kinofilmlar tili eng ahamiyatlari unsurdir. Ayniqsa, leksikasi birinchi bo’lib tomoshabinni o‘ziga jalb qiladi. Tahlillar natijasiga ko’ra, mustaqillikdan so‘ng ekran yuzini ko’rgan kinofilmlar orasida tijorat filmlaridan ko’ra davlat buyurtmasi asosida suratga olingan kinofilmlar tilida leksik me’yor talablariga ko’proq amal qilingan. Mavzusi nuqtayi nazardan qaraydigan bo’lsak, vatanparvarlik ruhidagi filmlar tili hayotiy-maishiy, kundalik muammolar yoritilgan filmlarga qaraganda leksik jihatdan rang-barangdir. So’zlarning o’z o’mida va tabiiy qo’llanilishi kinofilm saviyasini oshirishga xizmat qilgan.

Xulosa. Kino tilida leksik me’yorning muvofiq/nomuvofiqligi juda katta ahamiyatga ega, chunki kinofilmlarda leksik sathning yangilanganligi yoki nome’yoriy shakllari yaqqol ko‘zga ko‘rinadi hamda saviyali tomoshabin e’tiborini o‘ziga tortadi. Leksik xatolarga yo‘l qo‘yilishi esa adabiy til me’yorlarining millat vakillari nutqida noto‘g’ri shakllanishiga olib keladi. Kinofilmlar tilida leksik me’yorni ta’minlash rejissor, aktyor, ssenariy muallifi, dublyaj sohasi vakillari hamda tahrir hay’ati zimmasidadir.

ADABIYOTLAR:

1. Головин Б.Н. Основы культуры речи: Учеб. Пособие. – М.: Высш. школа, 1980. – С. 213.
2. Федосюк, М.Ю. Русский язык для студентов-нефилологов / М.Ю.Федосюк, Т.А.Ладыженская, О.А.Михайлова, Н.А. Николина. – М.: Флинта: Наука, 1999. – С.69.
3. Виноградов С.И. Норма лексическая / С.И.Виноградов // Культура русской речи: Энциклопедический словарь-справочник / под ред. Л.Ю.Иванова, А.П.Сквородникова, Е.Н.Ширяева и др. – М.: Флинта: Наука, 2003. – С. 360-361.
4. Хакимова Е.М. Ортологическая система современного русского языка: онтологические основания лингвидеонтического. Дисс. докт. филол. наук. – Челябинск, 2015. – С. 58.
5. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Изд. 2-е, стереотипное. – М.: Едиториал УРСС, 2004. С.271.
6. Аъзам Эркин Шовқин: роман, қисса, ҳикоялар. – Т.: «O‘zbekiston» НМИУ, 2011. – Б.21-22.
7. Ўзбек тилининг изоҳли лугати. 2 жилдили. 1-жилд. – Москва: Рус тили, 1981. – Б.507.
8. Ҳожиев А. Ўзбек тили синонимларининг изоҳли лугати. – Т.: Ўқитувчи, 1974. – Б.211